



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2026  
1-сон



# SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 yil, 1-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008 yil 31 dekabrda  
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e‘tirof etilgan

**Tahririyat a‘zolari:**

**Mas‘ul kotib:**

i.f.d., prof. M.Q.Pardaev

**Muharrirlar:**

i.f.d., dotsent F.A.Safarov  
PhD, dotsent I.M.Pardaeva  
PhD, I.Sh.Ernazarova

**Texnik muharrir:**

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

**Korrektor:**

PhD, dotsent v.b.  
T.I.Yahyoyev

**Sahifalovchi:**

PhD, dotsent v.b.  
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba  
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida  
tarqatiladi.**

**Tahririyat manzili:**

140100, Samarqand shahar,  
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,  
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53  
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

**Tahrir hay‘ati raisi:**

**M.E.Po‘latov** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,  
i.f.d., professor

**Tahrir hay‘ati raisi o‘rinbosari:**

**M.Q.Pardayev** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**Tahrir hay‘ati a‘zolari:**

**M.M.Muxammedov** – SamISI professori, iqtisod fanlari  
doktori

**D.R.Zaynalov** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**O.M.Murtazayev** – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,  
professor

**M.R.Boltabayev** – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

**R.X.Ergashev** – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

**B.K.G‘oibnazarov** – iqtisod fanlari doktori, professor

**I.S.To‘xliyev** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**K.B.Urazov** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**Q.J.Mirzayev** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**B.I.Isroilov** – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

**G.M.Shodiyeva** – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

**S.N.Toshnazarov** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**R.N.Normaxmatov** – SamISI professori, texnika fanlari doktori

**A.Bektemirov** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**O.M.Pardayev** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**M.T.Alimova** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**Z.Dj.Adilova** – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

**Sh.O.Quvondiqov** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**L.N.Xalikova** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**F.A.Safarov** – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

**A.M.Karimova** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**I.B.Mattiyev** – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

**B.F.Boronov** – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

**A.N.Xoliqulov** – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

**X.A.Raximov** – SamISI dotsenti, PhD

**S.A.Babanazarova** – SamISI dotsenti, PhD

**H.N.Ochilova** – SamISI dotsenti v.b., PhD

**I.R.Berdikulova** – SamISI dotsenti v.b., PhD

**A.Q.G‘apparov** – SamISI dotsenti v.b., PhD

<b>Xurshid Azamatovich Yunusov</b> Tadbir va ko‘ngilochar xizmatlarni rivojlantirishda marketing strategiyalaridan foydalanish	154
<b>Hamdam Iris o‘g‘li Allayorov</b> Logistika axborot oqimlarini sun‘iy intellekt asosida optimallashtirish	159
<b>Nodirjon Fayzullayevich Bekbutayev</b> Monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshirishda davlat organi va hududiy boshqarmalar faoliyatining samaradorligi	163
<b>Bekzodjon Sheraliyevich Oblakulov</b> Improving private education customer loyalty and brand trust through the implementation of digital marketing strategies	167
<b>Sadulla Shodiyevich Urazov, Laylo Obidjon qizi Abduraxmanova</b> Ta‘lim muassasalarida tashkiy tuzilmaning boshqaruv samaradorligiga ta‘siri	170
<b>MOLIYA, PUL MUOMALASI VA KREDIT</b>	
<b>Nuriddin Elamonovich Ernazarov</b> Aksiz solig‘ining byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi muammolar	174
<b>Шавкат Собирович Олтаев</b> Рақамли иктисодиёт шароитида суверен фондларни самарали бошқариш масалалари	177
<b>Madina Sanjar qizi Khotamkulova</b> Corporate efficiency as a financial market participant	181
<b>BUXGALTERIYA HISOBI, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT</b>	
<b>Komil Vaxromovich Urazov, Qahramon Hamidovich Vaxobov</b> Pochta xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar xarajatlari hisobining o‘ziga xos xususiyatlari	186
<b>Ortiq Eshnazarovich Ernazarov</b> Xizmatlar sohasini chiziqli ekonometrik modellashtirish asosida tahlil qilish va prognozlashtirish	191
<b>Тўлқин Исматулла ўғли Яхёев</b> Қурилиш хизматлари кўрсатувчи корхоналарда 15 сон МХХС асосида даромадларни тан олиш	198
<b>Jamshidbek Axmad ug‘li Abdurasulov</b> Korxonalarni qayta tashkil etishning o‘zgartirish shaklida buxgalteriya hisobi va hisobotini MHXS asosida takomillashtirish	202
<b>TA‘LIM, KADRLAR TAYYORLASH VA PEDAGOGIKA</b>	
<b>Умар Худайбердиев</b> Мактабгача ва мактаб таълими - илм ва муваффақият калитидир	209
<b>Bexzod Nematillayevich Gapparov</b> OTM kichik guruhlarda temperamentga yo‘naltirilgan pedagogik model	212
<b>Iltom Begmatdulobovich Mattiyev</b> Chet tillarni o‘rganishda pedagogik texnologiyalarning o‘rni	216
<b>Anvar Maxkamovich Soatov</b> Talabalar temperamentiga mos akademik yuklama taqsimotining samaradorligi	221
<b>E‘TIBORGA MOLIK MASALALAR</b>	
<b>Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев</b> Рамазон луғати Бахт нима?	225

# BUXGALTERIYA HISOBI, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT

**Komil Baxromovich Urazov** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, “Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası professori, i.f.d.

**Qahramon Hamidovich Vaxobov** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali magistranti

## POCHTA XIZMATLARINI KO‘RSATUVCHI KORXONALAR XARAJATLARI HISOBINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Maqolada pochta aloqa xizmatlarini ko‘rsatuvchi subyektlarda xarajatlar hisobini yuritishning o‘ziga xos xususiyatlarining nazariy hamda amaliy jihatlari yoritilgan. Bundan tashqari pochta xizmatlari xususiyatidan kelib chiqib xarajatlarning shakllanishi, tasnifi, hisobga olinishi hamda tannarxni aniqlashdagi muammolar tahlil qilingan. Ma’lumotlar xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar tahlili hamda amaliy kuzatuvlar asosida tuzildi.

**Kalit so‘zlar:** pochta, aloqa xizmatlari, xarajat, hisob, integratsiya, subyekt, shartnoma, gibrid pochta, kurerlik, logistika, raqamli xizmat korsatish.

**Kirish.** Bugungi global raqobat sharoitida xizmatlar sohasi milliy iqtisodiyotning ustuvor va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Xususan, pochta xizmatlari tizimi iqtisodiyotning muhim infratuzilmaviy tarkibiy qismi sifatida jismoniy va yuridik shaxslarga, shu jumladan, xo‘jalik yurituvchi subyektlarga va davlat organlari, va boshqa turdagi iqtisodiy birliklarga turli xil aloqa, logistika, moliyaviy hamda raqamli xizmatlarni ko‘rsatib kelmoqda. Urbanizatsiya, hayot tarzidagi o‘zgarishlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida pochta xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar faoliyatining mazmuni va ko‘lamida tub burilish bo‘ldi. 2020-yil 14-dekabr kuni, Prezidentimizning “Pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4921-son<sup>1</sup> qarori qabul qilingan edi. Mazkur qaror bilan 2021-2023 yillarda pochta aloqasini rivojlantirish bo‘yicha “Yo‘l xarita”si, 2021-2025-yillarda pochta aloqasining rivojlanishining maqsadli ko‘rsatkichlari, 2021-yilda 42 ta namunaviy tumanlarda (shaharlarda) pochta aloqasi korxonalarini transformatsiya qilish loyihalarini ko‘zda tutuvchi “Yo‘l xarita”lar tasdiqlandi. Qaror ijrosini ta‘minlash maqsadida 2021-yilda “O‘zbekiston pochta” AJ faoliyatini transformatsiya qilish, moddiy-texnik bazasini takomillashtirish va ish faoliyatini “raqamlashtirish”, shuningdek, pochta va kuryerlik xizmatlarini ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirish, elektron tijorat, bank va davlat xizmatlarini ko‘rsatishni joriy etish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Buning natijasida pochta aloqasining ko‘p yillik eski va an‘anaviy xizmatlari o‘rniga yangicha axborot texnologiyalari va tizimlariga asoslangan uslublar joriy etildi. Xususan, jo‘natmalarni qabul qilish, kuzatib borish va yetkazib berish jarayonlarini raqamlashtirish, elektron tijorat bozorida faoliyatni rivojlantirishga ko‘maklashish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini onlayn sotish va mijozlarga yetkazib berish imkoniyatini beruvchi bir necha elektron platformalar yaratildi.

Ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida “Butunjahon pochta rivojlanishi indeksi” reytingida O‘zbekiston 41 pog‘ona yuqorilab, 172 ta davlat ichida eng katta o‘shishni qayd etgan davlat sifatida e’tirof etilib, 74 o‘ringa ko‘tarilgan.<sup>2</sup>

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Xarajat bu yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, sotish yoki kundalik ehtiyojlar uchun sarflangan resurslar (pul, vaqt, materiallar) qiymati. Ular mahsulot tannarxini shakllantiradi va foydani aniqlashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Xarajatning to‘g‘ri ta’riflanishi va tasnifi korxonada ichki boshqaruvi, strategik qaror qabul qilish, mahsulot tannarxini hisoblash va moliyaviy rejalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

<sup>1</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-5162533?ONDATE=21.04.2022&action=compare>

<sup>2</sup> <https://parliament.gov.uz/news/ozbekistonda-pochta-alokasi-sohasi-jadal-rivojlanmoqda#>

Bugungi global raqobat sharoitida korxonalar nafaqat moliyaviy, balki strategik xarajatlarni boshqarish tizimini yaratishlari kerak. Pochta aloqa xizmatlarini ko‘rsatuvchi subyektlar xarajatlari hamda ularning hisobi borasida bugungi kungacha bir qancha xorijiy hamda respublikamizning taniqli olimlari o‘zlarining ilmiy ishlarida bayon etishgan. Xarajatlarni ilmiy-nazariy asos bilan tasniflash va tariflarini aniqlash orqali moliyaviy rejalashtirishning samaradorligini oshirish mumkin. Shu bois, O‘zbekiston va xorijiy olimlarning tariflarini o‘rganish va ularni amaliy kontekstga tadbiiq etish bugungi kunda muhim vazifalardan bo‘lib hisoblanadi.

1-jadval

**Xarajatlarga mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan berilgan ta’riflar<sup>1</sup>**

Muallif	Ta’rifi
<b>Urazov K.B.</b>	“Xarajat – korxonada mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish jarayonida ishlatiladigan resurslar qiymati”
<b>Matthews M.</b>	“An expenditure is a payment of cash or credit for goods or services, often by a business, organization or corporation.”
<b>Başak Ataman Akgül</b>	“Gider, işletmenin faaliyetlerini ve varlığını sürdürdürebilmesi, bir gelir elde edebilmesi için belirli bir dönemde kullandığı veya tükettiği mal ve hizmetlerin parasal tutarı olarak ifade edilebilir.”
<b>Hornrgren, Sundem &amp; Stratton</b>	“Cost is a sacrifice of resources, measured in monetary terms, that occurs to achieve a specific objective”
<b>Blocher, Stout &amp; Cokins</b>	“Costs are resources given up to achieve a particular objective”
<b>S.N.Toshnazarov</b>	“Xarajatlar – bu hisobot davri davomida kompaniya mulkdorlariga badal to‘lovlari bilan bog‘liq bo‘lmagan holda kapitalning kamayishida o‘z aksini topgan aktivlarning chiqarib ketilishi va boshqa eskirishi yoki majburiyatlarining o‘shishi shaklida yuz beradigan iqtisodiy naflarning kamayishidir

Yuqoridagi ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, korxonada xarajatlarga adabiyotlarda turlicha ta’riflar berilgan. Bizningcha, yuqoridagi ta’riflarni umumlashtirgan holda xarajatlarga quyidagicha ta’rif berish to‘g‘riroq bo‘ladi: Xarajat – bu korxonalar tomonidan moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish uchun qilingan barcha turdagi sarflarning puldagi ifodasining shunday shakliki ularning so‘ndirilishi kelgusida korxonaga iqtisodiy naf keltiradigan iqtisodiy resursning chiqib ketishiga olib keladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Pochta aloqa xizmatlarini ko‘rsatuvchi subyektlar xarajatlari hamda ularning hisobini takomillashtirishda iqtisodiy tahlilning tizimli tahlil, induksiya-deduksiya, mantiqiy va taqqoslama tahlil, statistik va iqtisodiy tahlil, balans, solishtirish, analiz, hisobot usullaridan foydalanildi.


**Tahlil va natijalar.** Korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan barcha turdagi xarajatlari tavsifi respublikamizda qabul qilingan me‘yoriy huquqiy hujjatlarda, shuningdek respublikamiz olimlari tomonidan atroflicha ochib berilgan. Bugungi kunda, “O‘zbekiston pochta” AJ tomonidan 2 xil yo‘nalishdagi xizmatlar ko‘rsatib kelinmoqda. (1-rasm) <sup>2</sup>

Bugungi kunda “O‘zbekiston pochta” AJ avtoparki va infratuzilmasi ham yangilanib, kompaniya tomonidan 27 ta Damas, 75 ta kichik Gaddi, 4 ta katta ISUZU va ikkita yuk ortuvchi Gazel avtotransportlari hamda 417 ta elektroskuter va 200 ta velosiped xarid qilindi.<sup>3</sup> Bu xarajatlarning barchasi ma’lum bir xizmat turining tannarxi shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

<sup>1</sup> Urazov K.B., Moliyaviy hisob va hisobot, Toshkent, 2018, Matthews M., Management and Cost Accounting, 10th edition, 2013, Başak Ataman Akgül, Borçlanma maliyetlerinin türk vergi mevzuati, sermaye piyasasi mevzuati ve uluslararası muhasebe standartları kapsamında incelenmesi Istanbul, 2006, Hornrgren et al., Introduction to Management Accounting, 16th edition, 2013, Blocher et al., Cost Management: A Strategic Emphasis, 7th edition, 2013, Тошназаров С.Н. Халқаро ҳисоб асослари. Маъруза матнлари тўплами. Самарқанд-2008. 83-бет.

<sup>2</sup> <https://uz.post/uz/xizmatlar>

<sup>3</sup> <https://yuz.uz/uz/news/uzpost--yangi-nom-bilan-mijozlarga-xizmat-korsatishning-yangi-imkoniyatlarini-yaratadi>



1-rasm. “O‘zbekiston pochta” AJ tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar

2-jadval

“O‘zbekiston pochta” AJning xarajatlari tarkibi<sup>1</sup> (ming so‘m)

Ko‘rsatkichlar nomi	2022		2023		2024	
	Summa	Ulushi	Summa	Ulushi	Summa	Ulushi
Sotilgan mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar) tannarxi	223904938	61,24%	279933615	65,64%	463762914	69,92%
Ma‘muriy xarajatlar	49 816 813	13,63%	60 408 553	14,17%	78 321 761	11,81%
Boshqa operatsion xarajatlar	55 836 829	15,27%	67 870 148	15,91%	93 079 543	14,03%
Foiz ko‘rinishidagi xarajatlar	1 591 303	0,44%	861 802	0,20%	6 145 983	0,93%
Valyuta kursi farqlaridan ko‘rilgan zararlar	34 367 239	9,40%	17 155 766	4,02%	21 615 815	3,26%
Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar	110 435	0,03%	230 613	0,05%	335 615	0,05%
<b>Jami xarajatlar</b>	<b>365627557</b>	<b>100%</b>	<b>426460497</b>	<b>100%</b>	<b>663261631</b>	<b>100%</b>

<sup>1</sup> <https://uz.post/uz/sahifalar/Yillik%20hisobotlar?id=47>

Yuqoridagi ma’lumotga ko’ra 2022–2024 yillar davomida “O‘zbekiston pochta” AJning jami xarajatlari 365 627 557 ming so‘mdan 663 261 631 ming so‘mga ko‘tarilgan. Bu uch yillik davr mobaynida jami xarajatlarning 81,4% ga o‘sganligini kuzatishimiz mumkin. Ushbu o‘shishning asosiy sabablari sifatida sotilgan mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar) tannarxining (2022-yilda 223 904 938 ming so‘m (61,24%), 2023-yilda 279 933 615 ming so‘m (65,64%), 2024-yilda 463 762 914 ming so‘m (69,92%)) xarajat tarkibidagi ulushi ortib borayotganini sabab qilib ko‘rsatishimiz mumkin. Ushbu asosiy faoliyat xarajatlarning oshishi, xizmatlar hajmining kengayishi va xizmat narxlarining oshishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib hisoblanadi. Bundan tashqari ma’muriy xarajatlar (2022-yil 49 816 813 ming so‘m (13,63%), 2023-yil 60 408 553 ming so‘m (14,17%), 2024-yil: 78 321 761 ming so‘m (11,81%)) 2024-yilda ma’muriy xarajatlar ulushi kamaygan va bu ko‘rsatgich samaradorlikni oshirish hamda ma’muriy xarajatlarni optimallashtirish natijasidir. Shuningdek, boshqa operatsion xarajatlar (2022-yil 55 836 829 ming so‘m (15,27%), 2023-yil 67 870 148 ming so‘m (15,91%), 2024-yil 93 079 543 ming so‘m (14,03%)) o‘shishda davom etgan bo‘lsada, jami xarajatlardagi ulushi oz miqdorda pasaygan (2024-yilda 14,03%), ya’ni bu turdagi xarajatlar jami xarajatlar tarkibida barqaror qolmoqda. Shu bilan birga, foiz ko‘rinishidagi xarajatlar (2022-yil 1 591 303 ming so‘m (0,44%), 2023-yil 861 802 ming so‘m (0,20%), 2024-yil 6 145 983 ming so‘m (0,93%)) 2023-yilda kamayib, 2024-yilda sezilarli oshgan. Bu kredit yoki moliyaviy majburiyatlar stavkalaridagi o‘zgarishlar bilan izohlanadi. Valyuta kursi farqlaridan kelib chiqqan zararlar (2022-yil 34 367 239 ming so‘m (9,40%), 2023-yil 17 155 766 ming so‘m (4,02%), 2024-yil 21 615 815 ming so‘m (3,26%))ning jami xarajatlarga nisbatan ulushi kamayganligini kuzatishimiz mumkin. Ushbu ko‘rsatgich valyuta riskini boshqarish samaradorligini oshganini bildiradi.

Umuman olganda “O‘zbekiston pochta” AJning xarajatlari 2022–2024 yillarda sezilarli darajada oshgan bo‘lsada, bu asosan asosiy faoliyat — pochta xizmatlari hajmining oshishi bilan bog‘liq bo‘lib hisoblanadi. Sotilgan mahsulotlar tannarxi jami xarajatlarning asosiy qismini tashkil qilishini hisobga olgan holda xizmat ko‘rsatish hajmi ortishi bilan proporsional oshishini kuzatishimiz mumkin. Shu o‘rinda aytish joizki “O‘zbekiston pochta” AJ 2023-yilda o‘zaro xalqaro pochta almashinuvi 19 ta mamlakat bilan yer usti transporti va 71 ta mamlakat bilan havo transporti orqali amalga oshirildi. Bundan tashqari 2023-yilda UzPost tomonidan 837,2 tonna xalqaro xat (2022-yilda 633 tonna) va 104,5 tonna posilka (2022-yilda 109,8 tonna) jo‘natildi. Shuningdek, 2023-yilda kiruvchi xalqaro xatlarning umumiy hajmi 94,7 tonnani (2022 yilda 160,1 tonna), posilkalar esa 167,7 tonnani (2022 yilda 225,6 tonna) tashkil etdi.<sup>1</sup>

**Xulosa va takliflar.** Pochta xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda xarajatlar hisobining o‘ziga xos xususiyatlari ularning xizmat ko‘rsatish sohasi vakili ekanligi, keng hududiy tarmoq va murakkab logistika jarayonlari bilan izohlanadi. Xarajatlarni to‘g‘ri hisobga olish va tahlil qilish xizmatlar tannarxini pasaytirish, tarif siyosatini takomillashtirish va korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda respublikamizda pochta sohasini rivojlantirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi mazkur tarmoqni zamonaviylashtirish, raqamlashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bunda asosiy maqsad pochta xizmatlarini daromadli va raqobatbardosh sohaga aylantirish hamda iste‘molchilarga xalqaro standartlarga mos, sifatli xizmatlar ko‘rsatishni ta‘minlashdan iborat. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pochta xizmatlarining nomoddiy xususiyatga egaligi va bir vaqtning o‘zida bir nechta xizmat turlarining umumiy infratuzilma va transport vositalaridan foydalanishi xarajatlarni aniq xizmat turiga bevosita bog‘lashni murakkablashtiradi. Shu bois analitik hisobni to‘g‘ri tashkil etish, xarajatlarni xizmat turlari va hududiy bo‘linmalar kesimida ajratib hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, xarajatlar tarkibida doimiy xarajatlarning yuqori ulushi mavjudligi xizmat hajmidagi o‘zgarishlardan qat’i nazar moliyaviy yuklama saqlanib qolishini anglatadi. Ayrim pochta xizmatlari bo‘yicha tariflarning davlat tomonidan tartibga solinishi esa xarajatlar va daromadlar o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlashni murakkablashtiradi. Shu sababli xarajatlarni puxta hisobga olish, ularni tizimli tahlil qilish va tannarxni asosli shakllantirish pochta aloqa korxonalarining moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta‘minlashda muhim ahamiyat

<sup>1</sup> <https://brendgoda-2023.marketing.uz/uz/nominations/logistika/252.htm>

kasb etadi. Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- ✚ An’anaviy pochta xizmatlari, posilka va yuk tashish xizmatlari, kuryerlik va ekspres xizmatlari, moliyaviy pochta xizmatlari, qo‘shimcha xizmatlar bo‘yicha xarajatlar analitik hisobini yuritish orqali har bir xizmat turining rentabelligini aniqlash imkoniyati yaratiladi. Bu pochta xizmatlari ko‘rsatuvchi korxonalarining iqtisodiy samaradorligining oshishi uchun asoslangan qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi.
- ✚ Yetkazib berish bilan bog‘liq xarajatlar, dasturiy taminot xarajatlari, davr xarajatlari va boshqa xarajatlarning bir nechta xizmat turlariga bir vaqtda xizmat sarflanishini inobatga olib, ularni asosli mezonlar (xizmat hajmi, yuk aylanmasi, ish vaqti va boshqalar) asosida taqsimlash zarur. Bizningcha, faoliyatga asoslangan kalkulyatsiya (ABC) usulini joriy etish tannarx aniqligini oshiradi.
- ✚ Xarajatlar va shu bilan birga daromadlar harakatini real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini beruvchi integratsiyalashgan axborot tizimlarini joriy etish boshqaruv qarorlarini tezkor va aniq qabul qilishga yordam beradi va bu orqali pochta xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar samaradorligining oshishiga erishish mumkin.
- ✚ Pochta xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar faoliyatidagi doimiy xarajatlar ya’ni amortizatsiya xarajatlari, xodimlarni ish haqi, transport xarajatlari, qadoqlash xarajatlari, saqlash xarajatlari tahlil qilish, energiya tejamkor texnologiyalarni qo‘llash hamda logistika yo‘nalishlarini qayta ko‘rib chiqish xizmat tannarxini pasaytirishga imkon beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. 14.12.2020 y. PQ-4921-son "Pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori;
2. 09.06.2022 yildagi O‘RQ-777-son “Pochta aloqasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni;
3. “Pochta aloqasini tashkil etish” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. Toshkent – 2018;
4. Urazov, K. B. (2004). Buxgalteriya hisobi va audit. Toshkent–2004;
5. Urazov K.B., Moliyaviy hisob va hisobot, Toshkent, 2018;
6. Isroilov, B. I., & Ochilov, I. S. (2021). Improvement of organizational and economic mechanisms of organization of vine clusters. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(08), 27-33;
7. Kudrin V.A., Buhgalteriya hisobi va moliyaviy menejment, 2017;
8. Drury, Management and Cost Accounting, 10th edition, 2013 ;
9. Horngren et al., *Introduction to Management Accounting*, 16th edition, 2013; 10. Blocher et al., *Cost Management: A Strategic Emphasis*, 7th edition, 2013; 11. Toshnazarov S.N. Xalqaro hisob asoslari. Ma’ruza matnlari to‘plami. Samarqand-2008. 83-bet.
12. Başak Ataman Akgül, Borçlanma maliyetlerinin türk vergi mevzuati, sermaye piyasasi mevzuati ve uluslararası muhasebe standartları kapsamında incelenmesi Istanbul, 2006.
13. 2025-yil 16-17-may BARQAROR RIVOJLANISHDA BUXGALTERIYA HISOBI, IQTISODIY TAHLIL VA AUDITNING HUDUDIY TENDENSIYALARI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi Pochta aloqa xizmatlarini ko‘rsatuvchi sub’yektlarda daromadlar hisobini yuritishning o‘ziga xos xususiyatlari Urazov K.B. Vaxobov Q.

#### Internet manbalari

1. <https://lenta.ru/news/2024/10/29/populyarnosti/>;
2. <https://www.demandsage.com/gmail-statistics/>;
3. <https://lex.uz/docs/-5162533>;
4. <https://lex.uz/docs/-6058066>.
5. <https://brendgoda-2023.marketing.uz/uz/nominations/logistika/252.htm>
6. <https://yuz.uz/uz/news/uzpost--yangi-nom-bilan-mijozlarga-xizmat-korsatishning-yangi-imkoniyatlarini-yaratadi>
7. <https://uz.post/uz/sahifalar/Yillik%20hisobotlar?id=47>

<p><b>К.Уразов, К.Вахобов</b></p> <p><b>Особенности учета затрат предприятий, оказывающих услуги почтовой связи</b></p>	<p><b>K.Urazov, Q.Vakhobov</b></p> <p><b>Specific features of cost accounting in enterprises providing postal services</b></p>
<p><b>Аннотация.</b> В статье раскрываются теоретические и практические аспекты специфических особенностей ведения учета затрат у субъектов, оказывающих услуги почтовой связи. Кроме того, с учетом специфики почтовых услуг проанализированы процессы формирования затрат, их классификация, порядок отражения в бухгалтерском учете, а также проблемы, возникающие при определении себестоимости услуг. Материалы исследования сформированы на основе анализа зарубежной и отечественной научной литературы, а также результатов практических наблюдений.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> почтовые услуги, услуги связи, затраты, бухгалтерский учет, интеграция, субъект хозяйствования, договор, гибридная почта, курьерские услуги, логистика, цифровые услуги.</p>	<p><b>Abstract.</b> The article highlights the theoretical and practical aspects of the specific features of cost accounting in entities providing postal communication services. In addition, considering the distinctive characteristics of postal services, the study analyzes the formation of costs, their classification, accounting procedures, and the problems associated with determining service cost. The research materials were developed based on the analysis of foreign and domestic scientific literature as well as practical observations.</p> <p><b>Keywords:</b> postal services, communication services, costs, accounting, integration, entity, contract, hybrid mail, courier services, logistics, digital service provision.</p>

**Ortiq Eshnazarovich Ernazarov** – PhD, v.b. professor, ISFT instituti Samarqand filiali Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari kafedrasini mudiri.

**XIZMATLAR SOHASINI CHIZIQLI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH ASOSIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASHTIRISH**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xizmatlar sohasining rivojlanish dinamikasi chiziqli ekonometrik modellashirish usullari asosida kompleks tahlil qilinadi hamda istiqboldagi o‘shish tendensiyalari prognoz qilinadi. Tadqiqot jarayonida regressiya tahlili, korrelyatsiya koeffitsiyentlari, trend tenglamalari va parametrlarni baholash usullaridan foydalaniladi. Modelning adekvatligi korrelyatsiya koeffitsiyenti, determinatsiya koeffitsiyenti, Fisher va Styudent mezonlari yordamida tekshiriladi. Natijada xizmatlar sohasiga ta’sir etuvchi asosiy omillar aniqlanib, ularning miqdoriy ta’siri baholanadi.

**Kalit so‘zlar:** xizmatlar sohasi, chiziqli ekonometrik model, regressiya tahlili, iqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi, omillar ta’sirini baholash, prognozlash usullari, statistik ma’lumotlar tahlili.

**Kirish.** Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishi yildan-yilga o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lib, mamlakatimiz YaIMdagi ulushi ortib bormoqda. Ayniqsa, xizmat ko‘rsatish sohasini raqamlashtirish orqali xizmatlar hajmini yanada oshirish juda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamiz xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish bilan bir qatorda Samarqand viloyatida xizmatlarni rivojlantirish uchun samarali iqtisodiy va boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish alohida ahamiyatga egadir. Zamonaviy boshqaruv tizimi esa iqtisodiy jarayon va hodisalarning kelgusidagi holati hamda ko‘lamini aniqlashda ishonchli usul va vositalardan foydalanishni taqozo etadi. Samarqand viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlanishini ekonometrik tahlili iqtisodiy-matematik usullar vositasida murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarning bog‘liqlik kuchini aniqlash hamda ularning qonuniyatlarini aniqlash va tajriba orqali kuzatish imkonini beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Tadqiqot jarayonida xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlanishini baholash va prognozlashtirish modelini ishlab chiqish maqsadida Yo.Abdullaev, O.Ernazarov, D.Usmanova, M.Kaz, Ya.R.Magnus, Endryu F., Sigel kabi olimlar<sup>1</sup>ning ilmiy ishlarini o‘rganib chiqdik. Ular ekonometrik tahlil, ya’ni korrelyatsion-regression tahlil asosida

<sup>1</sup> Абдуллаев Ё. Статистика назарияси. – Т.: «Ўқитувчи», 2002. – 240 б.; Ernazarov O., Usmanova D., Kaz M. Ekonometrika asoslari. – S.: «SamDU», 2022. – 219 b.; Магнус Я.Р., Катышев П.К., Пересецкий А.А. Эконометрика. Учебник. – М., 2005. – 499 с.; Эндрю Ф., Сигел. Практическая бизнес-статистика. 4-е издание, – М.: Издательский дом «Вильямс», 2002.–450 с.

ISSN 2091-5187

☞ “SERVIS” ☞

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat  
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

06.03.2026 yilda terishga berildi. 19.03.2026 yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset  
bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” garniturasini. Ofset bosma usuli.  
Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot  
tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0031A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining  
matbaa bo‘limida chop etildi.

Litsenziya № 025316.

Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.